



XALQ DEPUTATLARI OQDARYO TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2022 - yil 18 - fevral

VI-54-34-7-92-K/22

Oqdaryo tumani hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga saqlangan erkin qoldiq hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2022-yilda shakllangan qo'shimcha manbalar hisobidan mablag' yo'naltirish maqsadida, shuningdek, tuman Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i - tuman hokimining o'rinbosari Y.O'roqovning 2022-yil 11-fevraldagi 01-01-09/22-sonli xati hamda tuman hokimligi Moliya bo'limi boshlig'i U.Maxmanazarovning 2022-yil 16-fevraldagi 02/06-38-53-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik uchinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman budjetining 2022-yil 1-yanvar holatiga shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan Samarqand viloyati hokimining 2022-yil 17-yanvardagi "Shahar va tumanlarda tashkil etilgan "Nuroniylar maskani" majmualari faoliyatini takomillashtirish va mavjud imkoniyatlardan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yig'ilish bayonining 3-bandini ijrosini ta'minlash maqsadida nuroniylar maskani binosiga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarini yillik saqlash xarajatlariga ajratiladigan 16 954 000 (o'n olti million to'qqiz yuz ellik to'rt ming) so'm mablag'lar miqdori tasdiqlansin.

2. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (Sh.Shakarov)ga, ajratilgan mablag'lardan hisob-kitoblarga asosan maqsadli foydalanish, tuman hokimligi Moliya bo'limi (U.Maxmanazarov)ga ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (U.Maxmanazarov)ga tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (H.Ablaqulov)ga belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Ergasheva) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (E.Ashurov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



Qudratov S. A.